

## FATVO TUSHUNCHASI VA UNING MAS'ULIYATI

**Rahimov Ne'matulloh Karimdjanovich**

*"Islomshunoslik va islam tsivilizatsiyasini o'rganish"*

*ISESCO kafedrasi maqsadli tayanch doktoranti*

"Fatvo" va "futya" lafzlarining ko'pligi "fatavi" va "fatavo" bo'lib, lug'atda;

**الفتوی-الجواب عما يشكل من المسائل الشرعية أو القانونية**

Ya'ni; "xox shar'iy massalalarga taalluqli bo'lsin, xox qonuniy sohaga aloqador bo'lsin, mushkullik tug'dirgan savollarga javob berish" degan ma'noni anglatadi<sup>76</sup>.

Alloh taolo "Yusuf" surasining 43-oyatida aytadi:

**"Podshoh (bir kuni) dedi: «Ey, a'yonlar! Agar tush ta'birini aytuvchi bo'lsangiz, tushim to'g'risida fatvo (javob) beringiz!"**<sup>77</sup>.

Va yana «Naml» surasining 32 - oyatida quyidagicha aytadi:

**"(Malika) aytdi: «Ey, zodagonlar! Menga bu ishimda fatvo (maslahat va javob) beringiz! Men to sizlar guvoh bo'limguningizcha biror ishni qat'iy qiluvchi emasman”**<sup>78</sup>.

Ushbu ikki oyatda "Aftuni" ya'ni javob beringlar deb so'ralganda, shar'iy hukmga aloqador bo'limgan savolga javob so'ralganiga guvoh bo'lamiz. Keyinchalik esa faqatgina shar'iy hukmlarga aloqador savollarga javob berishga fatvo deyiladigan bo'lgan.

Qur'onda ham fatvo lafzi shu mazmunni ifodalab kelgan. Allah taolo «Niso» surasining 127 va 176 - oyatlarida marhamat qilib aytadi:

**"Sizdan (ey, Muhammad!) ayollar to'g'risida fatvo so'raydilar. Ayting: "Ular to'g'risida sizlarga Allah fatvo berur"**<sup>79</sup>.

**"(Ey, Muhammad!) Sizdan fatvo so'raydilar. Ayting: «Allah sizlarga otasi ham, farzandi ham bo'limgan odam to'g'risida (shunday) fatvo beradi»**<sup>80</sup>.

Mana bu yuqoridagi ikki oyatda fatvo so'rash, diniy savolga javob berish ma'nosida kelmoqda.

Ko'plab hadislarda ham fatvo so'zi xuddi shu ma'noni ifodalab kelgan. Misol uchun Imam Dorimiy rivoyat qilgan hadisda buni ko'rish mumkin:

Ubaydulloh ibn Abu Ja'fardan rivoyat qilinadi:

**«Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Fatvo berishga jur'atlirog'ingiz, do'zaxga tushishga jur'atlirog'ingizdir», deganlar»**<sup>81</sup>.

Bugungi kunning istilohida fatvo lafzi diniy savolga javob berishga ishlataladi. Shar'iy demasdan diniy deyishimizga sabab, fatvo beruvchi muftiy insonlarning faqat fiqhiy savollariga javob berish bilan cheklanibgina qolmasdan, ulardan keladigan e'tiqodiy savollarga, hadisning ma'nolariga va dinga aloqasi bor bo'lgan boshqa barcha savollarga ham javob beradi. Shuning

<sup>76</sup> Ahmad Abu Hoqqa. Mo'jamul nafoisul kabir. – Bayrut: Dorun nafois, 2007.-B. 786

<sup>77</sup> Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar mullifi Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: Toshkent islam universiteti, 2009. - B. 240

<sup>78</sup> O'sha manba. - B. 379

<sup>79</sup> O'sha manba. - B. 98

<sup>80</sup> O'sha manba. - B. 106

<sup>81</sup> Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon Dorimiy. Sunan Darimiy. - Bayrut. Dorul kitobil arabi, 1998. - B. 483

uchun fatvo bu diniy savolga javob berishga aytildi, degan ta'rifni ishlatsak to‘g‘iroq bo‘ladi.

Fatvo va uning mas’uliyati. Ilmiy ishimizni dolzarbligiga sababchi bo‘lgan asosiy omillardan biri, bu bugungi kunda, fatvo va uning mas’uliyatini his qilmasdan, bu ishga ahl va haqli bo‘lmay turib fatvo berayotgan shaxslar va ularning bergan noto‘g‘ri fatvolari hisoblanadi. Ular tomonidan berilgan bu noto‘g‘ri fatvolar oilalarning, nafaqat oila, hatto katta jamiyatning buzilishiga saba bo‘lyapti.

Imom Navaviy fatvo berish mas’uliyatini eslatib «Sharhul muhazzab» kitobining muqaddimasida aytadilar: «Shuni bilki, fatvo berish mas’uliyati og‘ir, kadri ulug‘, fazli ko‘p bo‘lgan vazifadir. Chunki fatvo beruvchi payg‘ambarlar merosxo‘ri hisoblanib, fatvo beruvchi inson farzi kifoyani ado qilyotgan bo‘ladi. Shu bilan birga bu ish insonni xatarga yo‘liqtiradigan amal hisoblanadi. Shuning uchun fatvo beruvchi shaxs to‘g‘risida: «U Allohning nomidan gapiruvchi inson», deyilgan»<sup>82</sup>.

Har bir fatvo beruvchi shaxs, fatvo berish mas’uliyati juda og‘ir va xatarli vazifa ekanini his qilishi kerak. Fatvo berish degani, shaxsiy fikrlarni bildirish, ilmsiz holda faqatgina aqlga suyanib javob berish yoki ichki his tuyg‘ularga ergashib masalani yechish degani emas. Balki insonni dunyo va oxirat saodatiga erishishini ta‘minlab beruvchi Alloh tomonidan joriy qilingan shar‘iy hukmlarni bayon qilib berish deganidir. Fatvo beruvchi Alloh va Uning rasuli nomidan gapirishining o‘zi, bu vazifa oliv va o‘ta og‘ir mas’uliyatli vazifa ekanligiga kifoya qiladi.

Muhammad ibn Abu Bakr Dimashqiy muftiylik lavozimi naqadar oliv va mas’uliyatli kasb ekanini bildirib: «Podsholar nomidan gapirish hech kim inkor qilmaydigan oliv maqom hisoblanar ekan, endi qanday qilib olamlar podshohi bo‘lgan, yero osmonni yaratgan Allohning nomidan gapirish yuksak maqom hisoblanmas ekan. Albatta eng yuksak maqom xisoblanadi. Shunday ekan bu sharaflı lavozimda faoliyat ko‘rsatayotgan kishi o‘ziga yarasha ilmga ega bo‘lishi kerak. Alloh unga bergen bu maqomning ulug‘ligini bilib, haq so‘zni aytish va haqqa chaqirishda qalbida zarracha ham tanglik bo‘lmasligi kerak. Albatta Allohning o‘zi unga ko‘makchi bo‘lib, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Qanday qilib yordam bermasin, axir bu fatvo berish ishini Allohning o‘zi boshqarishini bildirib, «Sizdan (ey, Muhammad!) ayollar to‘g‘risida fatvo so‘raydilar. Aying: «Ular to‘g‘risida sizlarga Alloh fatvo berur», deb marhamat qilganku! Alloh taoloning O‘zi bu ishni boshqarishi ushbu mansabning naqadar ulug‘ va sharaflı ekanligiga dalolat qiladi. Endi fatvo beruvchi odam qanday zotning nomidan fatvo berayotganini bilsin, Albatta u erta qiyomat kunida Allohning huzurida turib bergen vatvolari haqida so‘ralishiga ishonsin», deydilar»<sup>83</sup>.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning «Fatvo berishga jur’ati kuchliroq bo‘lganlaringiz, do‘zaxga tushishga jur’atliroq bo‘ladi», degan hadislari fatvo berishning yuki naqadar og‘ir ekanini bilib olishga kifoya qiladi.

Ibn Abdulbarrdan rivoyat qilinadi: «Uqba ibn Muslim: «Men Abdulloh ibn Umar bilan o‘ttiz to‘rt oy birga bo‘ldim. U kishiga savol berilganda ko‘pincha «Bilmayman», der edilar. So‘ng menga qarab: «Bilasanmi bular nimani istashadi? O‘zлari jahannamga o‘tish uchun bizning belimizni ko‘prik qilishmoqchi», der edilar», dedi»<sup>84</sup>.

<sup>82</sup> "Abu Zakariyo Muhiddin Yahyo ibn Sharaf Navaviy "Majmu‘ sharhu muhazrab". - Bayrut, Dorul fikr, 2003.-B. 86

<sup>83</sup> "Muhammad ibn Abu Bakr ibn Ayyub. "E‘lomul muvaqqi‘in". - Bayrut: Manarul islam, 2004. - B. 124

<sup>84</sup> "Ibn Abdul Barr. Jomiu bayonil ilmi va fazlihi. - Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1402. - B. 316

Xatib Bag'dodiy «Xato qilishdan ehtiyot bo'lish ma'nosida fatvo berishga intilishdan qaytariq» nomli bobda quyidagilarni aytadilar:

«Alloh «Zuxruf» surasining 19 oyatida:

**“Ularning bu guvohliklari, albatta, yozilur va ular (qiyomat kunida) so‘roq qilinurlar”<sup>85</sup>.**

Va «Ahzob» surasining 8 oyatida:

**«Bu rostgo‘ylardan (qiyomatda) sodiqliklari haqida so‘rash uchun edi»<sup>86</sup>.**

Va «Qof» surasining 18 oyatida:

**«U biror so‘zni talaffuz qilsa, albatta, uning oldida hoziru nozir bo‘lgan bir kuzatuvchi (so‘zni yozib oluvchi farishta) bordir»<sup>87</sup> ”**

Deb marhamat qilgan. Shuning uchun ushbu oyatlarning mazmunini yaxshi anglab yetgan sahabalar faqatgina nozil bo‘lgan oyatlardan so‘ralganda javob berar edilar. Sahobalardan fatvo so‘ralganda, ularning barchasi uning o‘rniga yonidagi birodari savolga javob bershini istardi». So‘ngra Xatib Bag'dodiy quyidagi hadisni keltirganlar:

Baro ibn Ozibdan rivoyat qilinadi: «Men badrda ishtirok etgan uch yuzta sahabani fatvo so‘ralganda, uning o‘rniga yonidagi sherigi savolga javob berishini istaganini ko‘rganman», dedi<sup>88</sup>.

Imom Shofiy dan rivoyat qilinadi: «Alloh fatvo berishga yarasha ilmni ato qilgan bo‘lsada, fatvo berishdan tilini tiyish borasida Ibn Uyaynachalik tiliga mustahkam olimni ko‘rmaganman»<sup>89</sup>.

Sufyon ibn Uyaynadan rivoyat qilinadi: “Tilini fatvo berishdan tiygan odam, fatvoni eng yaxshi biluvchi odamdir. Har doim fatvo berishga oshiquvchi inson esa, fatvoni umuman bilmaydigan odamdir”, dedilar<sup>90</sup>.

Bishr ibn Horis rahmatullohi alayxdan rivoyat qilinadi: “Kimiki undan savol so‘rashlarini yoqtirsa, demak u savol so‘rashga loyik inson emas”<sup>91</sup>.

Suxnum aytadilar: «Mendan bir savolni so‘rashadi. Men o‘sha savolning javobi qaysi kitobda, nechanchi betda va o‘sha betning nechanchi qatorida ekanini juda yaxshi bilaman. Lekin darhol javob bermayman. Bunga sabab esa, mendan keyingilar savolga o‘ylmasdan javob berishga jur’atli bo‘lmasligi uchun»<sup>92</sup>.

Alloma Mavardiy o‘zlarining «Adabud din va dunyo» kitoblarida aytadilar: «O‘zim tushgan holga tushib qolishingdan seni ogohlantirib aytaman. Men savdo sotiq borasida bir kitob yozishga kirishdim. Bu kitobni yozishda katta ter to‘kib, bor bilimimni ishga soldim. Kitob mukammal bir shaklga kelganda. O‘zimdan o‘zim faxrlanib «Savdo sotiq ilmini mendan ko‘ra yaxshi biladigan inson bo‘lmasa kerak», deb o‘yladim. Shu fikrda turganimda ikkita sahrolik oldimga kelib: «Biz saxroda to‘rtta shartni o‘z ichiga olgan savdoga o‘zaro bitim qildik. Shuni yechimini aytsangiz», deb qoldi. Men uning javobini bilmaganidan, o‘ylanib

<sup>85</sup> "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri Tarjima na izoxlar muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. -T.: "Toshkent islom universitetin" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. - B. 491

<sup>86</sup> O‘sha manba. - B. 419

<sup>87</sup> O‘sha manba. - B. 519

<sup>88</sup> "Xatib Bag'dodiy. Faqih val mutafaqqih. - Bayrut: Doru ibn Javziy, 1996. - B. 349

<sup>89</sup> Muhammad Taqi Usmoniy. Usulul ifta va adabuhu. - Karachi: Maktabatu maorifil Qur'an, 2011.- B.12

<sup>90</sup> Muhammad Taqi Usmoniy. Usulul ifta va adabuhu. - Karachi: Maktabatu maorifil Qur'an, 2011.- B.12

<sup>91</sup> Abu Bakr Muhammad ibn Husan Ojuriy. Axloqlul ulamo, - Riyoz: Idoratu buhus ilmiya, 1978. -B. 104

<sup>92</sup> Abu Abdulloh Qozi Iyoz. Tartibul madorik va taqribil masolik. - Qohira: Doru turosil arabiyy. 2009 -B. 412

qoldim. Ular menga: «Mana bu olimlar to'dasini boshlig'i bo'la turib, buning javobini bilmaysanmi», deyishdi. Men: «Javobini bilmadim», dedim. Ular: «Suf senga», deb ketishdi. Keyin ilmda mening shogirdlarimdan ham orqada bo'lgan bir kishining oldiga borib so'rashgan edi, u ularni qoniqtiradigan javobni tezda aytibdi. Savol so'ragan haligi ikki kishi buning javobidan rozi bo'lib, uni ilmini maqtab orgalariga qaytishibdi. Bu voqeal nafsimni xorlab, ujub qanotlarimni sindirgan tarbiya va nasihatning eng zo'ri bo'ldi»<sup>93</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ilmda va fiqhda dengiz bo'la turib, fatvo berishdan o'zini tiygan ulamolar, o'zlarini bunday tutishga asosiy sabab, bu Allah oldidagi mas'uliyatni his qilish va diniy ahkomlarni omonat deb bilishlari bo'lgan.

Endi ilmga ega bo'lmay turib, diniy masalalarda qo'rqlay, fatvo berayotganlar, yuqoridagi olimlarning siyratlarini o'qib o'zi xulosa chiqarsin!

<sup>93</sup> Abdulvahhab ibn Ali Subkiy. Tabaqotu shofeiya kubro, - Bayrut: Doru Mishkatul kutub, 1988. B. 269